

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHAROFUTDINOV IQBOLJON USMONJON O‘G‘LI

**TA‘LIMDAGI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon o'g'li

Та'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning
akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi..... 3

Шарофутдинов Икболжон Усмонжон угли

Методика развития акмеологической компетентности будущих
педагогов в условиях цифровых трансформаций в образовании..... 25

Sharofutdinov Iqboljon Usmonjon ugli

Methodology for developing acmeological competence of future teachers
in the context of digital transformations in education..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 55

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02. RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SHAROFUTDINOV IQBOLJON USMONJON O‘G‘LI

**TA‘LIMDAGI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA
BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING AKMEOLOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent– 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped3492 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Karimov Akramjon Zaynobidinovich
fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nazirova Elmira Shodmonovna
texnika fanlari doktori, professor

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2025-yil “29”- avgust soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2973 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur shox ko‘chasi, 108 uy. Tel.: (99871) 238-64-15 E-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “19” avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil “19”avgustdagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.To‘rayev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

M.S.Saitkamolov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, i.f.d., dotsent

D.Ya.Irgasheva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda global ta'lim transformatsiyalari sharoitida bo'lajak kadrlarda kasbiy motivatsiyani oshirish, ijodiy potensialni rag'batlantirish, kasbiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishish uchun shaxsiy imkoniyatlarni aniqlash va ulardan unumli foydalanish, o'zini-o'zi rivojlantirishga intilishni kuchaytirish, ta'lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, mustaqil fikrlash va izlanish, ijodiy tafakkur qilish, tadqiqotchilik, modellashtirish, konstruksiyalash, intellektual, hissiy, irodaviy va amaliy o'zini-o'zi uzluksiz yuksaltirishga yo'naltirilgan akmeologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Ayniqsa, kadrlar tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanish asosida bo'lajak pedagoglarning professional mutaxassis sifatida faoliyat yurita olish, har qanday qiyin keta olish vaziyatlardan mustaqil ravishda chiqib, mavjud muammolarga mustaqil tarzda yechim topa olish ko'nikmalarini takomillashtirishni ta'minlash ta'limdagi ustuvor vazifalardan biridir.

Dunyoning ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida bo'lajak pedagoglarning hayotiy muvoffaqiyatga erishishini mo'ljallash, shaxsiy sifatlarini o'stirish, madaniy yetuklik va ta'lim jarayonidagi axloqiy sifatlarga erishishga intilishini qo'llab-quvvatlash, kreativ faoliyatni tashkil etishga yo'naltirish, har bir talabning qobiliyatini ochib beruvchi va uning muvaffaqiyatini ta'minlovchi, ijtimoiy tan olinishga, o'z yetukligini his etishga, ijodiy guruhlarda shaxslararo munosabatni tashkil etishga qodir pedagog-akmeshaxsni aks ettirishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, bugungi global raqamli ta'lim muhitida pedagogik faoliyatga qo'yilayotgan yangicha talablar bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida yanada rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida ham "pedagogik ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha o'quv reja va dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish, mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan talabalarda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash" vazifalari alohida maqsad sifatida belgilangan. Bundan kelib chiqqan holda ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish asosida akmeologik kompetentligi, kasbiy bilim va ko'nikmalari hamda pedagogik mahorati rivojlangan pedagoglar avlodini tayyorlash vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Bu esa, bo'lajak pedagoglarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlarga ehtiyojni yuzaga chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son qarori, 2018-yil 19-fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-son, 2017-yil 30-iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5099-son Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish, pedagoglarni tayyorlashda akmeologik yondashuvdan foydalanish, innovatsion ta'lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida ularning malakasini oshirish masalalari B.S.Abdullayeva, E.M.Alkarov, A.R.Aripdjanova, A.D.Asqarov, U.SH.Begimqulov, R.X.Djurayev, A.S.Djurayev, X.I.Ibragimov, R.G.Isyanov, Sh.Q.Mardonov, S.Y.Maxmudov, M.T.Mirsoliyeva, N.A.Muslimov, Sh.O'.Nurullayeva, A.B.Radjiyev, N.I.Taylaqov, O'.Q.Tolipov, D.O.Ximmataliyev, A.R.Xodjabayev, T.T.Shaymardonov, G.O.Ernazarova, M.A.Yuldashev, O.A.Qo'ysinov, J.A.Hamidovlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida S.K.Abdulina, G.V.Abramyan, V.A.Adolf, V.I.Andreyev, O.M.Atlasova, M.V.Belov, V.P.Bespalko, A.A.Derkach, V.G.Zazikin, E.F.Zeyer, N.V.Kuzmina, E.A.Klimova, O.N.Lazareva, O.V.Muromseva, A.V.Nekrasov, A.A.Rean, G.K.Selevko, V.V.Serikov, V.D.Shadrikovlar tomonidan, asosan, bo'lajak o'qituvchilarni shaxsiy va kasbiy rivojlantirish, akmeologik yondashuv asosida muvafafaqiyatga erishishga yo'naltirish, innovatsion texnologiya modellarini yaratish kabi masalalarga e'tibor qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xorijiy davlatlarda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini takomillashtirish, kasbiy kompetentligi va o'zini o'zi akmeologik rivojlantirishning zamonaviy shakllari E.Baker, P.Chambers, P.Fongkanta, H.Gandhi, N.Hauck, X.Karamanos, S.E.Lee, C.McCray, A.J.Medina, V.Montoro, F.Osmin, P.Peerthy, M.K.Trehearn, T.L.Vega, R.T.Williams, Ch.R.Wright, K.Yoonlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat

universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-kasbiy barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari” mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilmoqda.

Tadqiqotning maqsadi ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirishning kasbiy akmeologik faoliyatga tayyorgarlik tuzilmasini takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilar axborot kompetentligining ularning akmeologik kompetentligini rivojlantirishdagi ro‘lini tahlil qilish hamda raqamli ta’lim muhitida bu kompetentliklar integratsiyasining rivojlanishini mustahkamlovchi akmetexnologiyalarni tasniflash;

raqamli ta’lim makonida bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik salohiyatini shakllantirish modelini ishlab chiqish hamda uni amaldagi o‘quv jarayoniga moslashtirish yo‘li bilan takomillashtirish;

bo‘lajak o‘qituvchilarning akmeologik kompetensiyasining rivojlanganligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish jarayoni olindi.

Tadqiqotning predmeti ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning mazmuni, shakllari va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga doir siyosiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish va tahlil etish, oliy ta’lim muassasalaridagi ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi kasbiy intensiya, professional individuallik, muloqotga moyillik, mas’uliyat, xayrixohlik, talabchanlik, muvozanatlilik, prinsipiiallik va gnostik komponentlarini akmeologik yondashuv zamirida axborot va akmeologik kompetensiyalarning integratsiyalashuv jarayonini tahlil qilish orqali raqamli ta’lim muhitiga qayta aloqali munosabatda qo‘llash asosida takomillashtirilgan;

mavjud faol ta’lim texnologiyalari integratsiyasining didaktik imkoniyatlari bo‘lajak pedagogning akmeshaxslikka intilish jarayoniga raqamli transformatsiyalar ta’limga taqdim etayotgan ijobiy trendlar va zamonaviy praksiologiyaning ko‘p omilli ta’sirini aniqlash orqali takomillashtirilgan, hamda ilk bor infoakmeologik kompetentlik tushunchasi kiritilgan, infoakmeologik kompetensiyalarning mazmun-mohiyati yoritib berilgan, ularga mos

akmetexnologiyalar tasniflangan, bo'lajak pedagoglarning infoakmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan;

bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli raqamli ta'lim muhitida uzluksiz va mustaqil kasbiy rivojlanishning ko'p vektorli sharoitini ta'minlashning mantiqiy (motivatsion, loyihalashtirish, funksiyali-amaliy, refleksiya va korreksiya) bosqichlarini hamda akmeopedagogik ierarxiyasini real ta'limiy muhitga moslashtirish orqali takomillashtirilgan;

bo'lajak pedagoglar akmeologik kompetentligining rivojlanganligini baholash mezonlari kasbiy tayyorgarlikka yo'naltirilgan o'quv jarayonida ta'limning pedagogik, psixologik va akmeologik vazifalari integratsiyasini ta'minlash asosida, xususan, munozarali, rivojlantiruvchi, treningli va o'yinli akmetexnologiyalarni hamda infoakmetexnologiyalarni (axborot-akmeologik texnologiyalarni) qo'llash orqali akmeologik-kreativ qobiliyatni shakllantirish darajalarini individual ta'lim trayektoriyasiga funksional uyg'unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari va mexanizmlari takomillashtirilgan;

ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli va uni amalga oshirish metodikasi yaratilgan;

bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga tatbiq etiladigan yondashuv va metodlarning ilmiy-nazariy jihatdan asoslanganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika metodlari vositasida aniqlanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati unda ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish jarayoniga doir nazariy-fundamental bilimlarning kengaytirilganligi, interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik mohiyati aniqlanganligi va empirik jihatdan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda pedagogik-psixologik fanlar asosida ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligida bo'lib, ulardan bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda muhim didaktik material sifatida samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasiga doir tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ketma-ketligini konseptual va integratsiyalashgan yondashuvlar asosida mazmuniy, texnologik-jarayoniy va diagnostik-natijaviy komponentlar uzviylikida amalga oshirishning ierarxik tasnifini asoslashga doir taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifatning 2021-2022-yillarda o'tkazilgan targ'ibot faoliyatida keng tatbiq etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4307-son Qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan chora-tadbirlar dasturining III bandida belgilangan "Axborot hashari" loyihasini amalga oshirishga bag'ishlangan vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yilda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi III yo'nalishiga oid oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviylikini ta'minlashga doir chora-tadbirlar 10-bandi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Kontseptsiyasi"ning mazmun-mohiyati va uni amalga oshirishning ilmiy-amaliy masalalari" mavzusida Respublika ilmiy-seminarini o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil 2-iyundagi 204-son dalolatnomasi). Natijalarning joriy qilinishi tahlimdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirishga xizmat qilgan.

ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchisining akmeologik kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari (tadqiqotchilik, loyihalashtirish va integratsiyalash malakalarini pedagogik-psixologik xususiyatlari) uning kasbiy kompetensiyalari bilan muvofiqligini ta'minlashga ustivorlik berish asosida takomillashtirishga doir tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan olingan 2018-2020-yillarda O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-sonli "O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida ilg'or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy-ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2092/04-son dalolatnomasi). Natijada ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlarni ishlab chiqish uchun xizmat qilgan.

ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak informatika o'qituvchisining interaktiv ta'lim vositalaridan foydalanishga o'rgatishning predmetli-didaktik shart-sharoitlari bulutli texnologiyalarga asoslangan resursli, kommunikativ, tashkiliy-boshqaruv funktsiyalarni bajarilishini ta'minlash hamda didaktik differensiyaga ustivorlik berish asosida ishlab chiqishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan olingan 2018-2020 yillarda O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-

sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy-ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2092/04-son dalolatnomasi). Natijada ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini pedagogik jarayonda rivojlantirishning mezonlari va ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish hamda empirik baholash samaradorligi aniqlanib, bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga doir mustaqil ta’limni tashkil etish metodikasi ishlab chiqilgan.

ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchisining akmeologik kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati o‘quv materiallari bilan ishlash (chaqiruv, anglash, fikrlash) va amaliy faoliyat (tushunish, anglash, tahlil, baholash) tajribasini umumlashtiruvchi ta’lim metodlari va pedagogik texnologiyalardan iborat metodik apparatga birlashtirish asosida takomillashtirishga doir yangiliklardan O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan olingan 2018-2020-yillarda O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan PZ-20170929789-sonli “O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayonida ilg‘or pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy-ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 3-iyundagi 02-07-2092/04-son dalolatnomasi). Natijada ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli va uni amalga oshirish metodikasi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish e‘lon qilingan bo‘lib, jumladan, OAK tasarrufidagi jurnallarda 9 ta, shulardan 5 tasi respublika jurnallarida, 4 ta maqola xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishing tuzilishi kirish qismi, uch bob, xulosa qismi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ish 185 sahifada bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, tadqiqot doirasida nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo’lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida akmeologik kompetentlikning mazmun-mohiyati va uni bo’lajak kadrlarda rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati hamda ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo’lajak pedagoglarni tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari tadqiq etilgan.

Akme – qadimgi yunoncha ακμή – eng yuqori nuqta, cho’qqi, takomil, nimaningdir yuqori bosqichi, gullagan davr ma’nolarini anglatadi. Akmeologiya – ilmu fanning shunday yangi tarmog’i, u insonni o’z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o’zidagi eng kuchli qobiliyatlarning namoyon qilishning kompleks masalalarini o’rganadi.

Akmeologiya tushunchasi fanga rus olimi N.A.Ribnikov tomonidan 1928-yilda kiritilgan, deyiladi. N.A.Ribnikov akmeologiyaga – yetuk insonlarning shakllanish jarayoni sifatida qaragan. Akmeologiyaning ilmiy muomalaga kirib kelishiga esa asos solgan psixolog B.G.Ananov, “insonning ruhiy bilish rivoji markazida dastlabki va so’nggi ontogenez, “chetroqda” esa insonning ko’proq ijodiyroq, samaraliroq ijtimoiy-faol hayot fazasi bo’lishi mumkin”, deydi.

Pedagog olim B.Xodjayevning fikricha, akmeologik kompetensiya o’ziga va uni o’rab turgan atrof-muhitga ishonch, o’z xohish-istaklari va ehtiyojlarini to’liq tushunib yetish, bugungi kundagi mavjud imkoniyatlarni va kelgusidagi ijodiy rivojlanish istiqbollari aniqlash, refleksiya, identifikatsiya, interiorizatsiyaga, o’zining qarashlari, e’tiqodi va nuqtai-nazarini o’zgartirishga qobiliyatlikdir.

Bizning mualliflik tarifimizga ko’ra, akmeologik kompetensiya – doimiy ravishda o’z-o’zini rivojlantirish, jismoniy, ma’naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; kasbiy mavqeyining o’sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlarini uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo’lish; hayot davomida o’qib-o’rganish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o’z xatti-harakatini adekvat baholash, o’zini nazorat qila bilish, halollik, to’g’rilik kabi sifatlarga ega bo’lish; mavjud bilimlarini bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o’tkaza olish qobiliyatidir.

Akmeologik yondashuv quyidagi tamoyillardan kelib chiqadi: birinchidan, intellektual yetuk, yuksak professional mutaxassis, salohiyatli, bilimli, jahon standartlariga javob beradigan kadrlarni jamiyatning zamonaviy talablari asosida uzluksiz kasbiy rivojlantirish ustuvor vazifalardan bo’lishi lozim; ikkinchidan, intellektual boy, yuksak ma’naviyatli akmeshaxs, akmeopedagoglarning zamonaviy tafakkur rivoji mahsuli asosida ikkita eng muhim strategik maqsad – sifatli ta’lim olish imkoniyatini yaratish va inson kapitalini mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashga erishish mumkin; uchinchidan, respublikamizda yangilanish va taraqqiyot jadal davom etayotgan davrda dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo’lga qo’yish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Bo’lg’usi o’qituvchilarning akmeologik yondashuvdan foydalanishi, birinchidan – kasbni muvaffaqiyatli egallashga erishish, ijtimoiy va mehnat faoliyatiga tayyorlanish rivoji, ta’lim va tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish imkonini; ikkinchidan – ijodiy tafakkur qilish, ta’lim ichki ehtiyojga aylanishi, barcha subyektlarda ta’lim tizimlashtirilgan bilish motivlari bo’lishi, ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim sifatining oshishi imkonini beradi.

Akmeologik yondashuv shaxsning faolligini, uning tashqi olamni o'zgartira oluvchi va o'z ehtiyojiga moslashtiruvchi substansiya sifatida talqin etishga imkon beradi. Akmeologik yondashuvda subyekt va obyekt o'zaro ziddiyatda emas, balki uyg'unlashuv jarayonida bo'ladi, ya'ni bo'lajak o'qituvchining ruhiyati va u egallashi kerak bo'lgan bilim va ko'nikmalar talaba shaxsiyatida uyg'unlashadi. Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchining kasbiy mohirlikka va shaxsiy komillikka erishishi, uning obyektiv borliq bilan bo'lgan munosabatining mukammallashib borishi hosilasidir.

Dissertatsiyada o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish jarayonini tizimli hodisa ekanligi nuqtai nazaridan, mazkur jarayonning mantiqiy bosqichlari quyidagicha belgilangan: 1) motivatsion: o'z-o'zini anglash, o'zgarish zarurligini anglash va o'zini o'zi rivojlantirish uchun qaror qabul qilish; 2) loyihalashtirish: o'zini o'zi rivojlantirish dasturini rejalashtirish va ishlab chiqish; 3) funksiyali-amaliy: o'z ustida ishlash, belgilangan vazifalarni bajarish bo'yicha bevosita amaliy faoliyat (yangi fazilatlarni egallash bilan bevosita bog'liq harakatlar, natijalarni hayotda qo'llash, hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish); 4) refleksiya va korreksiya: o'z-o'zini boshqarish, tahlil qilish, baholash. Olimlarning fikriga ko'ra, shaxsning o'zini o'zi rivojlantirishi protsessualdir. Bu pozitsiya o'zini o'zi rivojlantirishning o'z ichki mexanizmlariga ega ekanligi bilan isbotlanadi.

OTMlarning raqamli transformatsiyasini nazariy asoslashda zamonaviy ta'lim metodologiyasi alohida o'rin tutadi. Ta'lim sohasida ro'y bergan muhim o'zgarishlar natijasida ta'limning raqamli transformatsiyasi raqamli texnologiyalar imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish sohasidagi nazariy va uslubiy ishlanmalar majmuasi sifatida ta'limning yangi raqamli texnologiyasi paradigmasini shakllantirish va rivojlantirish imkonini beradi. Pedagogika fani va AKT konvergentsiyasiga asoslangan ta'limning transfer-integratsion paradigmasi raqamli transformatsiya davrida eng dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ta’limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo’lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslari”** deb nomlanadi. Mazkur bobda ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish mazmuni, modeli, texnologiyalari va pedagogik shart-sharoitlari tadqiq etilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagogning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi “Ta'limda axborot texnologiyalari” o'quv fanining amaliy mashg'ulotlari doirasida yangi metodologik ishlanmalar va usullar orqali takomillashtirilgan.

Oliy pedagogik ta'limda bo'lajak kadrlarni tayrlashda akmeologik yondashuvning zaruriyati o'quv-tarbiyaviy va boshqarish jarayonida jamiyat tomonidan qo'yilgan mustaqil fikrlovchi, muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiluvchi va mustaqil individual rivojlanish yo'lini qura oladigan, davlat, jamiyat va ish beruvchilar talablariga javob beruvchi, ijodkor, muloqotga kirishuvchan bitiruvchi shaxsini tayyorlash talabini bajarishni qanchalik amalga oshirishda ko'rinadi. Bunda, akmeologik usullar, akme-texnologiyalar shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatlarga tegishli masalalarni yechishga amaliy yordam beradi.

Kasbiy-akmeologik faoliyat individual shaxsiy faoliyat bo'lsada, uning samarali tashkil etilishi shaxsni kasbiy shakllantirish darajasi bilan uzviy bog'liq, ya'ni, bo'lajak pedagog shaxsini kasbiy akmeologik yo'naltirish sifati muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy akmeologik yo‘naltirish, bizningcha, quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Akmeologik motivatsiya – inson ehtiyojlarining ortishi, uning faoliyati murakkablashishi va ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli imkoniyatlar va motivlarning kengayishi, ta’lim jarayonida akmeologik yuksalish motivatsiyasini shakllantirish;

2. Akmeologik kompetentlikni shakllantirish – akmeologik ko‘nikmalarni egallash bilan bog‘liq bo‘lgan ehtiyojni rivojlantiruvchi, unga nisbatan ma’suliyatli hamda ijodiy yondashuvni, mehnat motivatsiyasini tarbiyalovchi hamda mutaxassislikka qaratilgan yo‘nalish kasb etuvchi jarayonlar alohida tarkibiy qismlarining o‘zaro integratsiyasida kasbiy shakllanish;

3. Akmeologik-kreativ qobiliyatni shakllantirish – bo‘lajak pedagogning kasbiy tayyorgarligi, maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma’naviy-axloqiy kasbiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni mustaqil o‘z bilim va zakovatiga ishongan holda muvaffaqiyatli olib borishga, ijodiy kasbiy fikrlashga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlikni shakllantirish.

1-jadval


Bo‘lajak pedagoglarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirishning tarkibiy komponentlari

Komponentlar	Faoliyat, harakatlar mazmuni
Shaxsiy	<ul style="list-style-type: none"> – o‘z-o‘zini anglash va rivojlantirish – kommunikativ va tashkiliy – hissiy-ixtiyoriy – ma’naviy va axloqiy
Ijtimoiy	<ul style="list-style-type: none"> – ijtimoiy kommunikativlik – ijtimoiy faollik
Umumkasbiy	<ul style="list-style-type: none"> – umumiy kasbiy kompetentlik – o‘qitish jarayonini tashkil etish va boshqarish
Maxsus	<ul style="list-style-type: none"> – mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlik – professional kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish (akme o‘qituvchi) – o‘qitish va ta’lim samaradorligini monitoring qilish
Introspeksiya	<ul style="list-style-type: none"> – o‘zini o‘zi nazorat qilish – izchil kuzatish, tahlil qilish va baholash

Tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlarda akmeologiyani ta’lim jarayonida qo‘llash, innovatsion, refleksiv, paradigmal, tizimli, aksiologik kabi yondashuvlar asosida shaxsni rivojlantirishning samarali yo‘llaridan foydalanilgan. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda akmeologiyani tadqiq etish, akmeologik yondashuv asosida kasbiy yo‘naltirilgan o‘qitish tizimida intensiv kasbiy tayyorgarlikka yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini takomillashtirish, o‘qitishda ta’limning pedagogik-psixologik-akmeologik vazifalari integratsiyasini ta’minlash asosida munozarali akmetexnologiya, rivojlantiruvchi akmetexnologiya, treningli akmetexnologiya va o‘yinli akmetexnologiyalarni qo‘llash, bo‘lajak pedagoglarni **akmeologik yondashuv asosida kasbiy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish masalalari ilmiy-uslubiy tadqiq etilmagan**. Respublikamiz OTMLarida olib borilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak

pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi yoritilmagan, pedagoglar tayyorlashda akmeologiyani tadqiq etish metodikasi yaratilmagan.

Mazkur bobning 1-paragrafida ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglar akmeologik kompetentligini rivojlantirish bosqichlarining mazmuni, shuningdek, akmeologik kompetentlikni rivojlantirish vazifalarining amalga oshirishini taqozo etuvchi turli ijtimoiy omillar tavsiflari batafsil bayon etilgan. Bo'lajak pedagoglarni shaxs, individ, akmeologik faoliyat subekti sifatida shakllanishida muhim ijobiy holatlar belgilab berilgan.



1-rasm. Bo'lajak pedagoglarda akmeologik kompetentlikni rivojlantirishning kasbiy akmeologik faoliyatga tayyorgarlik tuzilmasi

Akmeologik texnologiyalarni quyidagi yo'nalishlarda tasniflash mumkin:

1) **rivojlantiruvchi akmetexnologiyalar** – o'zini-o'zi anglash, o'zini-o'zi rivojlantirish, o'zini-o'zi namoyon etish, o'zini-o'zi dasturlashtirish, o'zini-o'zi boshqarish, o'zini-o'zi tasdiqlash texnologiyalari;

2) **psixotexnologiyalar** – motivatsion, kognitiv, emotsional, ma'naviy sohani rivojlantirishga oid texnologiyalar;

3) **ijtimoiy texnologiyalar** – perseptivli, tashkiliy-kommunikativli, kognitivli, refleksivli, kompleksli;

4) **pedagogik-korreksion-rivojlantiruvchi texnologiya** (bu akmeologik texnologiya shaxs rezervlarini tiklash, to'liq rivojlanish jarayonida kasbiy faoliyat muhitiga muvaffaqiyatli moslashishga, muammoni kompleks hal qilishga mo'ljallangan);

5) **ekstremal holatlarda shaxsiy vaqtni boshqarish texnologiyasi;**

6) **ixtirochilik texnologiyasi** (tadqiqotchilik, mustaqil izlanish, modellashtirish, konstruksiyalash);

7) **insonparvarlik texnologiyalari;**

8) **shakllantiruvchi akmetexnologiyalar** (mezonlar tizimini shakllantirish va akmeologik baholash asosida tanlash; psixologik-akmeologik va kasbiy diagnostika; kasbiylashuv monitoringi);

9) **o'yinli akmetexnologiyalar** (ish o'yinlari, tashkiliy o'yinlar, blits-o'yinlar, tashkiliy-kommunikativ o'yinlar, tashkiliy-intellektual o'yinlar, refleksiv o'yinlar, didaktik o'yinlar, o'yin-modelli texnologiyalar);

10) **treningli akmetexnologiyalar** (ijtimoiy-psixologik trening, o'z-o'zini anglash treninglari, videotrening, kasbiy-holatiy akmeologik trening, maqsadga yo'naltirilgan dasturiy-maqsadli akmeologik trening);

11) **munozarali** (didaktik, ijodiy, o'yinli);

12) **rolli** (psixoterapevtik o'yinlar, kontro'yinlar);

13) **autopsixologik texnologiya** (autopsixologik kompetentlik treningi);

14) **kompyuterli ta'lim texnologiyalari**.

Shuningdek, an'anaviy ta'lim tizimi yangilanayotgan bozor iqtisodiyoti va ijtimoiy madaniyatga mos kelmayotganligi sababli akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash dolzarbligi asoslab berilgan.

2-bobning 2-paragrafida tadqiqotda taklif etilgan ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik modeli keltirilgan va asoslab berilgan. Mazkur model to'rtta blokdan iborat: tashkil topdi: 1) maqsadli blok; 2) ta'limiy-tarbiyaviy blok; 3) mazmun-jarayonli blok; 4) baholash-tashxislash bloki.


Maqsadli blokida ijtimoiy buyurtma sifatida 2019-yil 8-oktabrdagi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi va boshqa huquqiy meyoriy manbalar asos qilib olindi. Tadqiqotimizning asosiy maqsadi esa ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishdan iborat edi.

Ta'limiy-tarbiyaviy blok kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar asosida qurilgan bo'lib, bu blok ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish bosqichlari, turlari hamda jarayonga ijobiy ta'sir qiladigan omillarini o'z ichiga oladi. Tadqiqot davomida ayon bo'ldiki, ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishda nazariy mazmundagi hamda amaliy yo'nalishdagi materiallar vositasida kasbiy faoliyat kompetensiyalarini shakllantirishda ijobiy natijaga erishiladi.

Mazmunli blok jarayonning pedagogik-psixologik ko'rsatkichlari, tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligi tafakkurning barcha turlaridan foydalanish orqali ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga oid nazariy-metodik tamoyillardan foydalanishga bog'liqligini isbotladi.

Modelning baholash-tashxislash bloki natijaviylik funksiyani bajaradi va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, pedagogik tajriba-sinov bosqichlari, baholash mezoni va akmeologik kompetentlikni rivojlantirish mahoratining shakllanganlik darajalarini aks ettiradi.


2-bobning 2-paragrafida ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning metodik asoslarini tizimli yoritish uchun mazkur kompetentlikni rivojlantirish omillari va sharoitlari hamda pedagogik tamoyillar tahlil qilingan.



2-rasm. Ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish modeli

Bugungi kunda dunyoda kechayotgan raqamli transformatsiyalarning ta'limdagi trendlariga asoslangan ta'lim muhiti uchun bo'lajak pedagoglar zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan samarali ishlash va ushbu jarayon bilan

bog‘liq muammolarni hal qilish imkonini beraduvchi axborot hamda akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirishlari kerak bo‘ladi. Bu esa bir vaqtning o‘zida ham axborot, ham akmeologik kompetensiyalarini o‘z ichiga olgan yangi kompetensiyalarni taqozo etadi.



3-rasm. Infoakmeologik kompetentlik tuzilmasi

Manbalar tahlili ko‘rsatishicha, bo‘lajak pedagoglarning axborot kompetentligi bilan akmeologik kompetentligining integratsiyasi masalasi yetarlicha o‘rganilmagan. Shu o‘rinda biz bu masalani amalga oshirishning o‘ziga xos usuli sifatida bir vaqtning o‘zida axborot va akmeologik kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan yangi ishchi tushuncha – **infoakmeologik kompetentlik** tushunchasini ilgari suramiz.

2-jadval

“Ta’limda axborot texnologiyalari” fani doirasida bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi tarkibidagi amaliy mashg‘ulotlar topshiriqlari

№	Bosh maqsad: infoakme-kompetentlikni rivojlantirish	Amaliy ish topshirig‘i	Tavsifi	Vazifasi	Maqsadi	Bajarish uchun tavsiya	Dasturiy vosita	Akmenatija
1.	Axborot madaniyati va mediasavodxonlik kompetentligini rivojlantirish	Axborotning ishonchligini baholash	Talabalarga bir mavzu bo‘yicha bir nechta onlayn resurslar (maqolalar, yangiliklar, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar) beriladi. Vazifa ularning haqiqiylikni tahlil qilish va mumkin bo‘lgan soxta yoki feyk ma‘lumotlarni aniqlash	Qidiruv tizimlaridan foydalangan holda mavzu bo‘yicha ma‘lumot manbalarini toping va tanqidiy baholansn	Axborotni filtrlash va uni tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantirish	Ilmiy manbalarni qidirish uchun Google Scholar dan foydalanish. FactCheck.org yoki PolitiFact kabi faktlarni tekshirish vositalaridan foydalanish	Google Scholar - ishonchli ilmiy manbalarni topish. FactCheck.org yoki PolitiFact - faktlarni tekshirish uchun. Adblock - veb-sahifalardagi ishonchsiz ma‘lumot manbalarini bloklash.	Tanqidiy filtrlash, axborot savodxonligi, reflektivlik
2.	Axborot xavfsizligi va etikasi kompetentligini rivojlantirish	Maktab sinfi uchun axborot xavfsizligi maxfiylik siyosatini ishlab chiqish	Talabalar o‘quv jarayonida raqamli qurilmalar va Internet resurslaridan foydalanishni tartibga soluvchi axborot xavfsizligi maxfiylik siyosatini ishlab chiqishlari kerak	Keys tadqiqoti ma‘lumotlarni himoya qilish qonunlari (masalan, GDPR) va ularni maktab ta’limi kontekstida qo‘llash bilan tanishishni talab qiladi.	talabalarning shaxsiy ma‘lumotlarini himoya qilish va raqamli muhitda axloqiy meyorlarining ahamiyatini tushunish	kiber tahdidlardan himoyalash, shaxsga doir hamda shaxsiy ma‘lumotlardan foydalanish qoidalarini nazarda tutuvchi hujjat yaratish. Ta’lim platformalari uchun 2FA (ikki faktorli autentifikatsiya) kabi xavfsizlik vositalarini amaliy qo‘llash	Google Workspace - xavfsizlik siyosatini yaratish (Google Docs). Zoom- konferensiya xavfsizligini sozlash uchun (parollar, qabulxonada kutish). Bitdefender yoki Kaspersky - qurilmalarda xavfsizlikni ta’minlash uchun	Huquqiy savodxonlik, etika va axloqiy meyorlar, pedagogik mas’uliyat.

va hokazo...

Infoakmeologik kompetentlik bu – akmeologik yondashuv ta'sirida shakllanadigan axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va o'z-o'zini yuqori darajada rivojlantirish bilan bog'liq ko'nikma va qobiliyatlar to'plamidir.

Zamonaviy pedagogning infoakmekompetentligi ta'limdagi raqamli tranyaformatsiyalar sharoitida raqamli ta'lim muhitida hozirgi raqamli taraqqiyot shiddatiga hamohang tarzda olib borayotgan faoliyatining samarasini kafolatlaydi.

3-jadval

Ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasida tavsiya etilayotgan, har bir bo'lajak pedagog egallashi shart bo'lgan akmeologik kompetensiyalarni "Ta'limda axborot texnologiyalari" fani mashg'ulotlari doirasida mustahkamlovchi akmetexnologiyalar va innovatsion metodlar

T/r	Akmekompetentlik	Akmetexnologiyalar	Metodlar	Dasturiy vositalar
1	Raqamli savodxonlik	Elektron ta'lim platformalari (LMS): O'quv jarayonini tashkil qilish, kontent bilan ishlash va akademik natijalarni kuzatish uchun Moodle, Google Classroom, Canvas platformalaridan foydalanish. Interfaol texnologiyalar: Teachable, Thinkific kabi platformalarda onlayn kurslar yaratish yoki o'quv materiallari sifatini oshirish uchun video kontent yaratish platformalaridan (YouTube, Vimeo) foydalanish. Tahlil va monitoring tizimlari: Talabalar taraqqiyotini tahlil qilishchi vositalardan foydalanish (masalan, ta'lim saytlari uchun Google Analytics).	Interfaol darslar va o'yinlar: O'quv jarayonida virtual (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalarini qo'llash. Mobil ta'lim ilovalari: ta'lim mazmunini yaratish va talabalar bilan muloqot qilish uchun ilovalardan foydalanish (masalan, Kahoot!, Quizlet, Nearpod).	Moodle Google Classroom Canva Google Forms Kahoot! Quizizz
2	Ijodiy fikrlash	Loyiha usuli: Raqamli vositalar va texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim loyihalarini yaratish va amalga oshirish (masalan, video kontent yaratish, o'quv o'yinlarini ishlab chiqish). Vizualizatsiya texnologiyalari: Canva, Miro yoki MindMeister kabi g'oyalar va fikrlarni vizualizatsiya qilish platformalaridan infografika, diagrammalar va aql xaritalarini yaratish uchun foydalanish	Guruh ijodiy faoliyati: Raqamli hamkorlik platformalari (Google Docs, Miro, Padlet) yordamida aqliy hujum va ijodiy sessiyalarni tashkil qilish. Ijodiy fikrlash: ijodiy va innovatsion yondashuvlar orqali murakkab muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodologiya.	Miro. MindMeister Adobe Trello
va hokazo...				
10	O'z-o'zini rivojlantirish va professional aks ettirish	Onlayn kurslar platformalari: Coursera, Udemy, edX kabi MOOC platformalarda muntazam o'qib malaka oshirib borish. Professional jamoalar: Tajriba almashish uchun LinkedIn, ResearchGate kabi onlayn jamoalar va forimlarda qatnashish.	Refleksiya usuli: Refleksiya kundaliklarini yuritish, blog va forumlarda tajriba va tahlil almashish. Kouching va murabbiylik usuli: Shaxsiy va professional o'sish uchun murabbiylik prinsiplaridan foydalanish.	LinkedIn Learning. Coursera edX. Evernote Reflectly

Ta'limdagi raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchining infoakmekompetensiyalari tanqidiy idrok etish va texnologiyalardan samarali

foydalanishni rivojlantirishga, raqamli ta'lim muhitida axloqiy me'yorlarni saqlashga, shuningdek, o'zaro muvaffaqiyatli hamkorlik qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasida tavsiya etilayotgan, har bir bo'lajak pedagog egallashi shart bo'lgan akmeologik kompetensiyalarni "Ta'limda axborot texnologiyalari" fani mashg'ulotlari doirasida mustahkamlovchi akmetexnologiyalar va innovatsion metodlar, metodika tarkibidagi amaliy mashg'ulotlar topshiriqlari namunalari quyidagi jadvallarda taqdim etilmoqda. Akmeologik yondashuvni tatbiq etish ta'lim muassasasini boshqarishda funkcionallikdan rivojlanishga o'tishiga, ta'limning barcha subyektlarida tizimlashtirilgan bilish motivlarining oshishiga, ta'lim olish ichki ehtiyojga aylanishiga va ta'lim sifatini salmoqli oshishiga hissa qo'shadi. Ikkinchi bobning 3-paragrafida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish metodikasi asoslari sifatida akmeologik kompetentlikni rivojlanishining tarkibiy elementlari tasniflangan, akmeologik kompetentlikning tarkibiy tayanch kompetensiyalari tasnifi berilgan, bo'lajak pedagoglarni akmeologik rivojlantirish dasturi taklif etilgan, muallif metodikasiga tegishli "Mening pedagogik qiyofam" va "Leader team" nomli metodlar o'rin olgan.

Dissertatsiyaning uchinchi – **“Bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligi”** nomli bobida tajriba-sinov ishlari tashkil etishning mazmuni, metodikasi va statistik tahlil natijalari keltirilgan. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi:

Bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotning tajriba-sinov ishlari uchta bosqichga bo'lib amalga oshirildi. Har bir bosqichda bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodologiyalar va amaliy tadbirlar joriy etiladi. Quyidagi 4-jadvalda har bir bosqich haqida ma'lumot berib o'tamiz:

4-jadval

Bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotning tajriba-sinov ishlari amalga oshirish bosqichlar

T/r	Bosqich nomi	Bosqich davri
1-bosqich	Diagnozlash va tahlil qilish	Tadqiqot boshlangan davrdan 2020-2021 o'quv yili boshigacha
2-bosqich	Eksperimental tadqiqotlar va metodlarni joriy etish	2020-2023-o'quv yillari (3 o'quv yili)
3-bosqich	Baholash va tahlil qilish, samaradorlikni o'lchash	2022-2023-o'quv yili yakunida

Bu uch bosqich orqali bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi va jarayonning tahliliy bahosi amalga oshiriladi. Har bir bosqichda bo'lajak pedagoglarning rivojlanishiga to'liq yordam berish va ularning kasbiy salohiyatlarini oshirishga erishish mumkin.

Quyidagi 5-jadvalda ta'limdagi raqamli transformatsiyalar sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlanganlik darajalarini aniqlash bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o'zlashtirishlarini belgilangan mezonlar bo'yicha matematik-statistika metodi yordamida tahlil etildi. Tajriba-

sinovda jami 438 nafar respondent-talabalar qatnashdi. Shundan 219 nafar talaba tajriba guruhini va 219 nafar talaba nazorat guruhini tashkil etadi. Tajriba-sinov ishlari Farg‘ona davlat universiteti, Samarqand davlat universiteti va Jizzax davlat pedagogika universitetlari talabalari bilan o‘tkazildi. Tajriba maydonlaridagi amaliy faoliyat mazkur oliy ta‘lim muassasalarining rahbarlari roziligi va pedagogik jamoaning bilvosita ishtiroki asosida olib borildi.

5-jadval

Bo‘lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan tajriba ishlariga jalb qilingan respondentlar taqsimoti

T/r	Tajriba maydonlari	O‘quv yillari	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami	Pedagoglar
